Mashhur Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o'zining "Kapitalizm, sotsializm va demokratiya" ^[4]. kitobida, kapitalistik jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot tartibsizlik demakdir. Ushbu tartibsizlikda raqobat vaqti-vaqti bilan bo'lib turadigan, uzilish jarayon sharoitidagiga qaraganda butunlay boshqacha tarzda harakat qiladi. Yangi buyumlar yoki bir xil bozorgir buyumlar ishlab chiqarish orqali daromad olish imkoniyatlari subyektlarda, lekin arzonroq tarzda uzluksiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish moddiylashishni talab qiladi. Boshqacha aytganda moliyaviy-iqtisodiy resurs qo'shimcha tarzda ishlab chiqarish jarayoniniga kiritiladi. Bu yangi mahsulotlar va yangi usullari teng shartlar asosida eski mahsulotlar va usullari bilan raqobat qila olmaydi. Korxona doimiy ravishda yangi usullarda va yangi sharoitlarda mahsulotlar ishlab chiqarish orqali raqobatbardoshligini oshirib borishi lozim. Kapitalistik jamiyatda "taraqqiyot" ana shunday amalga oshadi.

Shunday qilib, Y. Shumpeter tadbirkor innovatorni iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi, deb hisoblaydi. U "Raqobat tadbirkorning innovatsion intilishlarini (yangi mahsulotlar raqobati, tashkil etishning yangi shakllari va boshqalar.). Raqobat muhitida omon qolish uchun sizga monopoliya, innovatsiyalar tashkilotchisi bozorida monopol pozitsiya kerak ^[5]. deb uqtiradi. Sababi har qanday ishlab chiqaruvchi bozorda boshqalarga nisbatan monopol pozitsiyaga ega bo'lmas ekan bozor tezda siqib chiqaradi.

Raqobat ustunligi nazariyasi asoschilaridan biri bo'lgan amerikalik iqtisodchi M.Porter asarlarida tovarning raqobatbardoshligiga keyingi yillarda yangicha baho berildi. U tovarning raqobatbardoshligini "mahsulotning iste'molchi uchun qiymati" nuqtayi nazaridan belgilab berdi. Uning fikricha, har qanday xarid qilingan mahsulotning qiymati undan foydalanish natijasida keltiradigan nafga bevosita bog'liq. "Bu qiymat o'ta aniq va aynan hisoblanishi kerak. Shuningdek mavjud qiymat aniq mehnat mahsuli hamdir. Mahsulotning iste'mol qiymati-iste'molchi uni haqini to'lash foydali, deb hisoblaydigan maksimal narx". Mahsulotning raqobatbardoshligi mahsulot iste'mol qiymatining to'lanmagan (yoki beg'araz) qismiga to'g'ri proporsionaldir.



Porterning fikricha, har bir raqobatbardosh mahsulotning sotish bahosi iste'mol qiymatidan past deydi. Iste'molchi uchun iste'mol qiymatining to'lanmagan qismi mahsulotdan foydalanish natijasida olingan qo'shimcha foydaga teng. U tovarlarni yetkazib beruvchi uchun o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligiga mos keladi.

Bu yerda, iste'molchi iste'mol qiymatining to'lanmagan ulushni iloji boricha katta bo'lishidan manfaatdor hisoblanadi. Yetkazib beruvchi esa bundan ikki barobar manfaatdordir. Bir tomondan, u o'zining katta hajmida aniq mehnat natijasidan ham foyda ko'radi: tovarlar raqobatbardoshligining yuqoriligi sotib olinadigan tovar iste'molchi uchun xaridorligini ekanligini kafolatlaydi, ikkinchi tomondan, tovarning sotish bahosini oshirish va raqobatbardoshligini kamaytirish orqali yetkazib beruvchining foydasi oshadi.

Agar yetkazib beruvchi monopolist bo'lsa, u narxni oshirishni afzal ko'radi va "raqobatbardoshlik zahirasi" nolga aylanadi. Bu yerda monopolist mahsulot tannarhiga o'zining rentabelligini shu darajada qo'shadiki normal foyda tugul maksimal foyda ko'radi. Yuqori raqobatlashgan bozorda raqobatdoshliklikka erishish uchun foydadan kechiladi. Uning manbai iste'mol qiymatining to'lanmagan qismiga teng.

Y. Shumpeter sotuvchining raqobatli va monopol nisbatini izohlab berdi. "Ogayo daryosining buyidagi joylashgan qishloqdagi magazin sotuvchisi daryoda toshqin bo'lgan paytda bir necha soatga yoki bir kungacha monopolist bo'lishi mumkin." Yirik korxona atrofidagi salohiyatli raqobatchilar narx belgilovchi sifatida faoliyat olib borib mahsulot narxini raqobatli narxdan yuqoriga ko'tarishi mumkin. E.Chemberlin va Y.Shumpeter qarashlarida raqobatbardoshlik jarayonlari va monopolistik firmalarni raqobat siyosati yevropa an'analari asosida yotadi.

Agar biz raqobatning statik modelini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, unda Fridrix fon Xayek fikriga ko'ra, mukammal raqobat nafaqat sof raqobat jarayoni, balki determinizmning imkoniyatli bir nuqtasidir. Biroq raqobat majburiy jarayon bo'lib, iqtisodiy tizimni takomillashtiradigan ichki tuzilishni va iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashdir. Avstriya maktablarining ko'plab ishlari raqobatbardosh buyruqlar mavjudligi uchun ushbu institutsional sharoitlarni ya'ni inklyuziv institutlarni rivojlantirish va oqlashga qaratilgan.

Yetarli bilim va malakaga ega bo'lgan tadbirkor tovar ishlab chiqarish xarajatlarini 50 foizga qisqartirishga erishsa, jamiyat uchun katta xizmat qilgan hisoblanadi. Bunga faqat raqobatni rivojlantirish orqaligina erishish mumkin ^[6].

Kirznerning so'zlariga ko'ra, tadbirkorlik va bozor vakillari orasida tadbirkorlik iste'dodlarining mavjudligi muvozanat holatini saqlab qolishda sezilarli rol o'ynaydi. Tadbirkorlik shaxsning o'ziga nisbatan "hushyor bo'lishini" ta'minlaydi – uning yangi raqobat imkoniyatlariga moyilligini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, bozorni avvalgi yangiliklar bilan turg'un holatda qolib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Tadbirkorlar, yangi imkoniyatlardan foydalanib, narxlarini va savdo hajmlarini muvozanatning avvalgi nuqtasidan almashtiradilar, bu muvozanatsiz mexanizmni o'z ichiga oladi ^[7].

Korxonalarning raqobatbardoshligi innovatsiyalarni joriy qilinishi orqali ishlaydi. Korxonalar innovatsiya xarajatlarini ko'paytirish orqali yangi bozorlarga kirib borib boriladi. Korxonalar tomonidan bozorlarda yangi, sifatli va arzon mahsulotlarni taklif etish yo'li bilan korxonalarni raqobatbardoshligi ortib boradi. J.Klark tomonidan taklif etilgan raqobatni baholash mezonlari ishlab chiqilgan. (1-jadval)

1-jadval: J. Klarkning raqobatni baholash mezonlari ^[8]

| Bozor strukturasi: | Sotuvchining xatti-harakatlari: |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none">• aniq hukmronlikning yo'qligi va sotuvchilarning miqdori miqyosga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi;• Mahsulotlarni o'rtacha diferensiyasi va narxlarning moslashuvchanligi;• sotuvchilarning bozor va boshqa tarmoqlar o'rtasida hamda bozor ichida harakatlanishi uchun to'siq bo'lmasligi;• bozor ma'lumotlarining maqbulligi;• raqobatchilarning narxlarini pasaytirishga bo'lgan munosabatidagi noaniqlik;• qonuniy cheklovlarining yo'qligi;• Yangi bozorlarni va savdo shartnomalarini ishlab chiqish. | <ul style="list-style-type: none">• Mustaqil raqobat, daromad qidirish;• Yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar va samarasiz raqobatchilar uchun qo'llab-quvvatlashning mavjud emasligi;• G'irrom raqobatni mavjud emasligi (bozorlarda narxlar shakllanishida alohida huquqlar va narxlarning o'zlashtirilgan taktikasidan tashqari);• Ortiqcha narxlar diskriminasiyasining mavjud emasligi;• Mahsulot sifati va boshqa xususiyatlaridagi farqlarga xaridorlarning yetarli darajada tezkor javob berishi. |
| Tarmoqlarning natijadorligi: | |
| <ul style="list-style-type: none">• Samarali ishlab chiqarish va taqsimlash;• Reklama va savdo bo'yicha boshqa yordam usullar uchun keraksiz harajatlarning mavjud emasligi;• Investitsiya va innovatsiya faoliyatini qoplash uchun foydaning yetarliligi;• Samarali ishlab chiqarish;• Biznes faolligi davriga ta'sir etmaydigan narxlar;• Istemolchilarni talablariga javob beruvchi mahsulot sifati;• Mahsulot va texnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha tegishli daraja. | |



1980-yillarning oxirida yangi industrial iqtisodiyot davri boshlandi. Mavjud davr vakillari raqobatni firmalarning asosiy ta'sir etish shakllari sifatida qarashdi. Tahlilchilar raqobat strategiyasining o'zgaruvchanligini tasvirlash uchun alohida nazariy apparat-o'yinlar nazariyasidan foydalandilar. Yangi industrial davri iqtisodiyoti asosiy maqsadi shundan iboratki, qanday yo'l bilan firmalar raqobatlashayotgan hamkorlikda o'zlarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga olib keladi. Yangi industrial iqtisodiyotda raqobatning tahlili strategik o'zaro ta'sirlarni hisobga olgan holda bozor xulq-atvorining turli xil xususiyatlari orqali beriladi.

Djon Forbs Neshning "O'yinlar nazariyasi" bir qator bozor strategiyalarini tadqiq etish imkonini beradi. Uning qamrovi narx bo'yicha kelishuvlardan va to narx orqali kamsitishlargacha, talonchilik darajasidagi baholarni belgilash yoki vertikal cheklovlar borasidagi vaziyatlarni tashkil etib, raqobat jarayonlarining barcha sohalarini yoritib berishga xizmat qiladi.

Raqobat nazariyasining bosqichma-bosqich rivojlanishi raqobatni ma'lum jarayon sifatida tushunishga, tabiatiga ko'ra o'zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda, ko'rinib turibdiki, raqobat va monopoliya shu qadar bir-biri bilan uzviy bog'liqlik, monopolistik raqobat – har lahzada ham monopoliya, ham raqobat xususiyatlari mavjud bo'lgan tuzilma bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, monopoliyaning o'zi moliyaviy resurslarni, sanoatda texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradigan va salbiy iqtisodiy o'zgarishlarni bartaraf etadigan omil sifatida ma'lum ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi.

Narxlar va sotish hajmlarining iqtisodiy samaradorligi ko'rinishidagi raqobat natijasiga raqobat jarayonlarisiz va undan tashqarida erishish mumkin. Bu davrda tarmoqlarning ekonometrik tadqiqotlari va bozorlarning regression modellarini qurish orqali raqobatning miqdoriy ko'rsatkichlarini topiladi. Lekin bozorlarda faqat raqobatning bo'lishi yetarli emas, raqobat siyosati korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish xizmat qilishi kerak.

Raqobat haqidagi zamonaviy tushunchalar, eng avvalo, "raqobat" konsepsiyasi o'rniga nibatan kengroq "bozorda firmalarning o'zaro munosabatlari" tushunchasi paydo bo'lishi bilan ham tavsiflanadi. Bozorda firmalarning samarali o'zaro munosabatlari uchun raqobat jarayoni (adolatli raqobat nazariyasi) ham, raqobat natijasi (uning barcha shakllaridagi iqtisodiy samaradorlik) ham bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

Jahonda kichik biznes subyektlarini raqobatbardoshligi masalalari bilan shug'ullangan AQSh Garvard biznes maktabi tajribalaridan foydalanish mumkin. Professorlar M. Porter, A. Chandler, M. Enrayt, J. Makarturlar ushbu maktabning asosini tashkil etadilar. Ular tomonidan mahsulotlar raqobatbardoshligini aniqlash muammolari, raqobat sharoitida korxonalarni strategik rejalarini ishlab chiqish, raqobat ustunligi va muvaffaqiyatli rivojlanish omillarini o'rganildi.

Yana bir maktab bu Yapon maktabidir. Tokio, Xitosubasi, Vaseda universitetlari o'zlarining tadqiqotlarini narxsiz raqobat omillarini o'rganishga yo'naltirganlar. Bu markazda asosiy e'tiborni milliy ishlab chiqaruvchilarni qanday qilib yangi bozorlarni egallash muammolarini o'rganishga qaratadilar. Bu maktabning asosiy namoyandalari professor X. Takeuchi, X. Koboyasi, M. Suchiyalar hisoblanadi.

Yevropada ham korxonalarni raqobatbardoshligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar turli tomonlama o'rganilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shveysariya, Shvesiya, Daniya, Avstriya, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlar kompaniyalarning raqobatbardoshligiga oid o'zlarining alohida modellariga egadirlar. Ular o'zlarining ko'plab tadqiqotlarida asosiy e'tiborni xalqaro raqobatbardoshlik muammolarini o'rganishga qaratadilar.

M. Gelvanovskiy, V. Jukovskaya, I. Trofimovalar tomonidan raqobatbardoshlikka quyidagicha ta'rif beriladi. Raqobatbardoshlik - bu murakkab ko'p darajali tushuncha bo'lib, uni tahlil qilish va baholash ma'lum bir raqobat sohasi va ayniqsa uning darajasi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan ishonch bilan aytish mumkinki, raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy darajasi makroiqtisodiy bo'lib, u butun iqtisodiy tizim faoliyatining asosiy shartlarini belgilaydi. Unga mezodaraja muhim ahamiyat kasb etadi, unda bir guruh korxonalarni qamrab olgan sanoat yoki korporatsiyani rivojlantirish istiqbollari shakllanadi. Mikro darajada raqobatbardoshlik, go'yo, tovarlarning narxi va sifati nisbati shaklida o'zining yakuniy shaklini oladi. Ushbu nisbat avvalgi ikki darajada shakllangan shartlarga va korxona xodimlariga, uning resurslaridan ham, qiyosiy milliy, umumiy iqtisodiy va sanoat afzalliklaridan foydalanish qobiliyatiga bog'liq^[9].

Professor R.A. Fatxutdinov raqobatbardoshlikni quyidagicha ifodalaydi "...ushbu bozorda taqdim etilgan eng yaxshi o'xshash obyektlar bilan taqqoslaganda ma'lum bir ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi obyektlarning xususiyati. Raqobatbardoshlikni qoidalar, ilmiy va uslubiy hujjatlar, dizayn hujjatlari, texnologiyalar, ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan xizmat), ko'chmas mulk, xodim, ma'lumot, firma, mintaqa, sanoat, har qanday makro muhit, umuman mamlakat kabi obyektlarga nisbatan ko'rib chiqish mumkin"^[10].

Mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi katta ahamiyat kasb etadi. Jahon bozoriga mamlakatda tayyorlangan mahsulotlarni chiqarishda mahsulot va xizmatlarning raqobatbardosh bo'lishi muhimdir. Chunki jahon bozoriga chiqarilayotgan mahsulotlar har tomonlama raqobatchi firmalar tomonidan taklif etilayotgan mahsulotlarga qaraganda birinchi navbatda sifatli va arzon bo'lishi kerak. M. Porter mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi muammosini o'zaro bog'liq tarmoqlar guruhlarini o'rganish nuqtayi nazaridan o'rganib chiqdi va uni klasterlar deb atadi^[11].



Raqobatbardoshlikning eng tizimli konsepsiyasini L.P.Kurakov talqin qiladi: “raqobatbardoshlik - bu firma, korxona, tashkilotning mamlakat ichidagi va tashqarisidagi bozorda boshqa raqobatchilarga nisbatan afzalligi yoki kuchsizligi darajasi, texnologiya, kadrlar malakasi, sifat, savdo siyosati va boshqalar. Raqobatbardoshlik - bu mahsulotning nisbiy xarakteristikasi bo'lib, obyektiv shaklda raqib mahsulotidan bir xil zaruriy ehtiyojni qondirish darajasi va uni qondirish xarajatlari nuqtayi nazaridan farq qiladi” [12].

Raqobatbardoshlik raqobatchilarga qarshi kurashda turli omillarning iqtisodiy, ilmiy-texnik, tashkiliy va boshqaruv, ishlab chiqarish, marketing, moliyaviy va boshqa imkoniyatlari to'plangan. Ushbu imkoniyatlar bozorda raqib analoglariga qarshi bo'lgan mahsulotda (mahsulotlar, ishlar, xizmatlar) amalga oshiriladi [13].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, sintez, analogiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro amaliyotda olingan nazariy va amaliy izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki bozor iqtisodiyotini, umuman olganda tovar xo'jaligini rivojlantirishning eng muhim belgisi raqobat hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Raqobat - bu bozor mexanizmining asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona uchun raqobat kuchayib borish korxonalarining o'z raqobatbardoshligini saqlash va uni oshirish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni ijobiy natijadorligini ta'minlashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu bejiz emas, Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida kichik biznes va tadbirkorlik sohasida raqobat munosabatlari rivojlantirish sohasiga ahamiyat qaratib, quyidagilarni ta'kidladilar: “Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumladan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalar mamlakatimizga olib kelish va joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart” [14]. Iqtisodiy islohotlar jarayonida mamlakatimizda kichik biznes subyektlari tomonidan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini jadal oshira borib, ularni eksport qilish masalalari ustuvorlik kasb etmoqda.

Raqobatbardoshlik tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida bozor munosabatlari sharoitida bir subyektni boshqa subyektlardan ustunligini ifodalaydi. O'z navbatida raqobatbardoshlik xam nisbiy tushuncha bo'lib, uni quyidagi darajalar, ya'ni makrodarajadagi, mezodarajadagi va mikrodarajadagi raqobatbardoshliklarga ajratib o'rganiladi.

Raqobatbardoshlik jarayonlarining o'ziga xosligi shundaki, u ahamiyatli bo'lgan aniq vaziyatlarda uning ta'sirini tekshirib bo'lmaydi, balki har qanday muqobil iqtisodiy tizimlar bilan taqqoslaganda bozor iqtisodiyotini boshqa iqtisodiy tizimlardan ko'ra ustunligini ko'rishimiz mumkin.

Har qanday sharoitda bozor iqtisodiyoti me'yoriy darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun bozorlarda mavjud raqobat mexanizmi me'yoriy darajada yaxshi ishlashi kerak. Bu esa bozorda faoliyat yurituvchi subyektlarni halol raqobat kurashida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Bunday holat jahon iqtisodchi olimlari tomonidan ko'pgina ilmiy risolalarda yetarli darajada isbotlangan, shuning uchun aksioma sifatida qabul qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshlik korxonaning bozordagi xatti-harakatini, raqobat kurashining mohiyati va shakllarini, raqobat kurashida korxonaning raqobatbardoshligini, raqobat sharoitida boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullarini, jumladan, korxona rivojlanishi turli strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish xususiyatlarini tahlil qilinadi. Umuman olganda bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha tarmoqlarning rivojlanish strategiyasini raqobatbardoshlikdan alohida ko'rib chiqish mumkin emas.

Kichik biznesni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga e'tiborning kuchaytirilishi keyingi yillarda qabul qilingan qator huquqiy hujjatlarda, xususan, 2023-yil 2-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Raqobat to'g'risida”gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son, “Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda “Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag'batlantirish va raqobatbardoshligini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5286-son Farmoniga o'zgartirish kiritish to'g'risida”gi Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topmoqda.



Fikrimizcha, korxonaning raqobatbardoshligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini, mamlakat ichida va undan tashqarida ushbu tarmoqning boshqa korxonalariga nisbatan raqobatdosh ustunliklarini aks ettiradi. Korxonaning raqobatbardoshligini faqat bir tarmoqqa mansub korxonalar guruhi doirasida baholash mumkin, shuning uchun korxonaning raqobatbardoshlik darajasini baholash, birinchi navbatda, taqqoslash uchun asosiy obyektlarni tanlashni o'z ichiga oladi. Taqqoslanayotgan raqobatdosh korxonalar o'zaro mutanosiblikka ega bo'lishi kerak:

- 1) ishlab chiqarilayotgan mahsulot uning yordami bilan qanoatlantiriladigan ehtiyojlarning o'ziga xosligi bo'yicha xususiyatlari;
- 2) ishlab chiqarilgan mahsulotlar mo'ljallangan bozor segmentlari;
- 3) korxona faoliyat yuritadigan hayot siklining bosqichlari ^[15].

Korxonaning raqobatbardoshligi - bu bozordagi boshqa bozor kontragentlaridan yuqori bo'lmagan va sifat jihatidan yomon bo'lmagan narxda sotiladigan mahsulotni foydali ishlab chiqarish va sotish qobiliyati. Shuning uchun korxonaning raqobatbardoshligi uchta asosiy omildan iboratdir:

- 1) resurs (tayyor mahsulot birligiga resurslarning jismoniy xarajatlari);
- 2) narx (barcha foydalanilgan ishlab chiqarish resurslari va tayyor mahsulot narxlarining darajasi va dinamikasi);
- 3) "ekologik omil" (davlatning iqtisodiy siyosati va uning bozor kontragentiga ta'sir qilish darajasi) ^[16].

Shunday qilib raqobatbardosh kichik biznes korxonalari bu istemolchilar uchun sifati va narxlar jihatidan boshqa shu turdagi mahsulotlardan afzalliklarga ega raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi, samarali faoliyat yuritayotgan korxonalardir.

Kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi quyidagilarga bog'liq:

- korxonaning raqobatbardosh mahsulot chiqarish imkoniyati;
- tovar, ish va xizmatlar sifatini ta'minlash;
- samarali marketing va sotish tizimiga egaligi;
- xodimlar va boshqaruvning malaka darajasi;
- ishlab chiqarishning texnologik darajasi;
- korxonaning informasion tizimi;
- korxonada amal qilayotgan soliq muhiti;
- moliyaviy manbalardan foydalanish imkoniyati;
- korxona o'zining raqobat ustunliklaridan foydalanish darajasi va bosqichlari;
- raqobatbardoshlikni ta'minlovchi texnik, iqtisodiy va operasion o'lchamlari darajasi.

Ta'sirchan va rag'batlantiruvchi, erkin iqtisodiy raqobatni rivojlantirish evaziga ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar ustidan xaridorlarning hukmronligi o'rnatilib, bu bozor munosabatlarining mohiyatini belgilovchi sharoit hisoblanadi ^[17].

Tovarlar raqobatbardoshligining keng tarqalgan ta'riflari va raqobatbardoshlik haqidagi mavjud g'oyalarni tahlil qilish ushbu konsepsiyani tushuntirish va uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar orasidagi o'rnini aniqlash uchun muhim bo'lgan bir qator kategoriyalarni aniqlashga imkon beradi:

- mahsulot raqobatbardoshligi – bu mahsulotning iste'molchi uchun jozibadorligini bir o'lchovidir;
- mahsulotlarning jozibadorligi turli xil, ba'zan qarama-qarshi talablarni qondirish darajasi bilan belgilanadi;
- mavjud talablarning tarkibi, ularning ustuvorligi mahsulot turiga va uning iste'molchilariga ham bog'liq;
- iqtisodiy kategoriya sifatida raqobatbardoshlik nisbiy xususiyatga ega, chunki u ma'lum bir bozorga va o'ziga xos analogga nisbatan hisoblanadi;
- raqobatbardoshlik dinamik xarakterga ega, shuning uchun uni faqat vaqt o'tishi bilan bozor sharoitlarining o'zgarishini hisobga olgan holda ma'lum bir nuqtaga nisbatan ko'rib chiqish mantiqan to'g'ri keladi;
- raqobatbardoshlik muammosi asosan stasionar bo'lmagan to'yingan bozor bilan bog'liq;
- raqobatbardoshlik o'rganilayotgan mahsulotning hayotiy siklining bosqichiga bog'liq.

Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 29-maqsadida "Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususi sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish" ^[18]. - oldimizdagi asosiy maqsadlardan biri sifatida qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi farmonida "Kichik va o'rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, mikro moliyalashtirishni rivojlantirish, innovatsiyalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik biznes bilan kooperatsiyani rivojlantirishning yangi instrumentlarini amaliyotga joriy etish" ^[19]. kichik biznes subyektlarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash orqali rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida urg'u berilgan. "Yangi O'zbekiston – raqobatbardosh mahsulotlar yurti" dasturi o'z samarasini bermoqda. Bir yilning o'zida 2 mingga yaqin tadbirkorlar ilk bor tashqi bozorlarga chiqdi...



Erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog'lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Konstitutsiyada alohida o'rin egallashi kerak ^[20]. Yuqoridagi vazifani bajarish O'zbekistonda mahalliy iste'mol bozorlarida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini ilmiy muammosini nazariy-konseptual asoslarini chuqur tahlil qilish, kichik biznesni raqobatbardoshligini rivojlanish tendensiyalarini va ustuvor yo'nalishlarini amaliy jihatdan o'rganishni taqazo etadi. Shuning uchun kichik biznes korxonalarining, xususan ularning mahalliy iste'mol bozorlaridagi raqobatbardoshligi muammosi o'ta muhim, chunki u bevosita korxonalar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi hulosaga kelish mumkin:

- kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligi ular ishlab chiqarayotgan tovarlar raqobatbardoshligi bilan uzviy bog'liq, ammo uni hech qachon to'g'ridan-to'g'ri tovarlar raqobatbardoshligi bilan tenglashtirish mumkin emas;
- kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi korxonaning bozordagi boshqa kichik biznes korxonalari bilan raqobatlashish imkoniyatlaridir;
- kichik biznes korxonalarining raqobatbardoshligi uning bozordagi raqobat ustunligi va faoliyat samaradorligi bilan belgilanadi.

Respublikamizda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirish mam-lakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni negizida bo'lishi kerak.

O'zbekistonda qat'iy tejamkorlik tizimini rag'batlantirish orqali korxonalarning raqobatdoshligini oshirish ko'p jihatdan mahsulotlar tannarxini pasaytirishga bog'liqdir.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Коваленко Н. В., Сулейманова Т. А. Отечественный и зарубежный опыт государственной поддержки малого и среднего предпринимательства // ЦИТИСЭ. – 2020. – № 2. – С.471-485. DOI: <http://doi.org/10.15350/2409-7616.2020.2.41>.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. O'zbekiston NMIU-2020 yil. 360-bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqobat>
4. Й. Шумпетер. Теория экономического развития. –М. –1982.
5. С.А.Туменова. Региональная конкурентоспособность в новой экономике: концепции, методы, модели. –Нальчик: Издательство КБНЦ РАН, 2019. – 200 с.
6. Hayek F. Individualism and Economic Order. Chicago. –1980. P.102.
7. Kirzner, I. Equilibrium versus market process. In The Foundations of Modern Austrian Economics I. Kirzner. – Kansas, 1976. – P. –115–125.
8. J. Klark raqobatni baholash mezonlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
9. Гельвановский, М.И. Конкурентоспособность в микро-, мезо- и макроуровневом измерениях / М.И. Гельвановский, В. Жековская, И. Трофимов // Российский экономический журнал. – 1998. – № 3. – С. 67–68.
10. Фатхутдинов, Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление / Р.А. Фатхутдинов. –М.: ИНФРА-М, 2000. – 312 с.
11. Портер М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран. –М.: Международные отношения, –1993. –896 с.
12. Кураков, Л.П. Большой толковый словарь экономических и юридических терминов / Л.П. Кураков, В.Л. Кураков. – М.: Вуз и школа, 2001. – 720 с.
13. С.А. Туменова. Региональная конкурентоспособность в новой экономике: концепции, методы, модели. –Нальчик: Издательство КБНЦ РАН, 2019. – 200 с. 66-с
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi
15. Фатхутдинов Р. А. Стратегический маркетинг: учебник. –М.: Дело, 2001. 448 с.
16. Петров В. Конкурентоспособность. Анализ факторов, показателей и критериев, определяющих успех субъектов рынка в конкурентной борьбе на различных уровнях экономической деятельности (микро-, мезо-, макро, глобальном) // Ресурсы, информация, снабжение, конкуренция. 1999. № 4. С. 4–11.
17. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari: 100 savol va javob. –Т.: "Mehnat", 1997. –57-58-6.
18. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi". 29-maqсад.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi (president.uz)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.